

BUXORO AMIRLIGDA YANGI USUL MAKTABALARINI TASHKIL ETILISHI

Adxamov Bahodirjon Husanboy o‘g‘li

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Tarix yo‘nalishi III-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asr boshlarida Buxoro amirligida ta’lim tizimida yuz bergan tub o‘zgarishlar, xususan, yangi usul maktabalarining tashkil etilishi, bu jarayonning tarixiy, siyosiy va ijtimoiy asoslari tahlil qilingan. Jadidchilik harakatining amaliy natijalaridan biri sifatida vujudga kelgan yangi usul maktablari nafaqat an‘anaviy maktablar va madrasa ta’limiga muqobil, balki zamonaviy, ilmiy asoslangan o‘qitish metodikasini taklif qilgan. Maqolada bu maktabalarning ilk tashkilotchilari – Mulla Jo‘raboy, Nizom Sobitov, Munavvar qori Abdurashidxonov va boshqa jadidlarning ta’limiy faoliyati, shuningdek, ularning Rossiya va Turkiyadagi ilg‘or pedagogik tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlari yoritilgan. Shuningdek, Ismoil Gaspirinskiy tomonidan taklif etilgan “Xo‘jai Sibiyon” darsligining mazmuni va ahamiyati, ta’limdagi o‘rni ham tahlil etiladi. Buxoro amirligidagi madrasalarining holati, ularning yangi usul maktablari bilan aloqasi va bu jarayon xalqning dunyoqarashida qanday o‘zgarishlar yasaganiga e’tibor qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro amirligi, maktablar, jadidchilik, Abdurauf Fitrat, Abdurashidxonov, Ismoil Gaspirinskiy, Ta’limislohoti, Kutubxonalar, Ma’rifatparvarlik, Sadriddin Ayni, Mulla Jo‘raboy, Irshod.*

Jadidchilik faoliyatining tub mohiyati kishilik jamiyatimizning rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, o‘tgan davrda bo‘lib ijtimoiy-siyosiy voqealar ilm-fan sohalarini rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilgan deyish mumkin. Jadidchilik harakatining asoschilari milliy mafkurani oshirish hamda istiqlolga erishish yo‘lida bilim salohiyatli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning yuzaga kelishi bilan bog‘liq. Buxoro amirligida ta’lim tizimini isloh qilish masalalarini ko‘targan mahalliy ma’rifatparvarlar Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Sadriddin Ayniy, Sadri Ziyolarning qalamiga mansub asarlarida ma’lumotlar qayd etiladi²³⁵. Xususan, Abdurauf Fitrat asarida amirligidagi jadid maktablari hamda ularda ta’lim va tarbiya masalalari haqida, hamda Fayzulla Xo‘jayev maqola va asarlarida an‘anaviy o‘qitish maskanlarining asl mohiyati va ijtimoiy ahamiyati, Sadriddin Ayniy asarida an‘anaviy ta’lim tizimidagi o‘quv-uslubiy va tarbiyaviy muammolar tahlil qilingan bo‘lib, bu asarlar

²³⁵ Izzayev B. Turkiston jadidlarining Ko‘mak tashkiloti. - Toshkent: Islom universiteti, 2016. - B. 45-46.

masalaga xolisona yondashuvi bilan ajralib turadi. Buxoroda yangi usul maktablarining tashkil etilishi 1900-1903 yillarga to‘g‘ri keladi. Aynan shu yillarda tatar o‘qituvchilari tomonidan ilk yangi usul maktablari ochiladi. 1900 yilida Buxoroda Pirmast tumanidagi Po‘stindo‘zon qishlog‘idan bo‘lgan Mulla Jo‘raboy tomonidan amir Abdulahadxon ruxsatni bilan yangi usul maktablari ochiladi²³⁶. ammo oradan uch oy o‘tgach, uning faoliyati to‘xtatilib, muallimlari quvg‘inga uchraydi. Sadreddin Ayniyning yozishicha, Buxoroda bu paytda mavjud bo‘lgan yangi usuldagagi tatar maktabi tatar tilida bo‘lganligidan buxoroliklarning foydalanishlari qiyinroq edi. Shu sababli mahalliy taraqqiyatparvarlar o‘zları yangi usul maktabi ochish harakatiga tushdilar. Yangi Buxoro (Kogon)da ham yangi usul maktabi tatar muallimlari tomonidan ochilib, unga joyni amir hukumatining o‘zi ko‘rsatib bergen edi. Dastlab unda tatar muallimlar, keyinchalik esa mahalliy muallimlar dars beradi

Buxoroda yangi usul maktablarini tashkil etishda Mahmudxo‘ja Behbudiy muhim rol o‘ynagan. U 1901-yilda Samarqandda birinchi yangi usul maktabini ochgach, bu tajribani Buxoroda ham joriy etishga intildi. U Buxoro ziyolilari va ma‘rifatparvarlarini yangicha ta‘lim tizimini joriy qilishga undagan. Buxoroda ilk mahalliy yangi usul maktablari 1903-1904-yillardan ochila boshlangan. 1903-yilga kelib Buxoroda 6 ta yangi usul maktabi tashkil etilgan edi²³⁷. 1908-yilda Buxoro amirligiga Ismoil Gaspirinskiy maktab islohoti masalalari yuzasidan tashrif buyuradi. Buxoroda u ilg‘or fikrli tatar ziyolilari dan Sobitov bilan uchrashgan. 1910-yillarga kelib, Buxoro amirligi hududida bir nechta yangi usul maktablari faoliyat yurita boshladi. Bu maktablarda o‘quvchilarga arifmetika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, yozish, o‘qish, chizmachilik kabi dunyoviy fanlar ham o‘qitilgan. O‘qituvchilar yangi uslubda ta‘lim berish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan. Ismoil Gaspirinskiy muallim Nizom Sobitovga yangi usul maktablari uchun o‘zi yozgan. “Xo‘jai Sibiyon” “Bolalar muallimi” nomli birinchi darslik asosida ish boshlashni tavsiya etadi²³⁸. Bu maktablar uchun yangi uslubda darsliklar va qo‘llanmalar tayyorlangan bo‘lib, ularning mualliflari orasida Behbudiy, Avloniy, Munavvarqori kabi jadid ziyolilari bor edi.

Ushbu darslikda foydali maslahatlar, hikoyalar berilgan edi²³⁹. Sobitov tatar bolalarini yosh xususiyatlarga qarab sinflarga bo‘ladi. O‘rtacha bir kunda 5 soat dars, har bir darsdan so‘ng 10 daqiqa tanaffus joriy qilinadi. Birinchi bosqichda o‘quvchilarga harflar o‘rgatiladi, o‘quvchi bir darsni o‘zlashtirmasa, ikkinchisiga o‘tolmasdi. Bolalarni yorug‘ xonalarda, ko‘rgazmali qurollar, globus va xaritalar orqali o‘qitish yo‘lga ko‘yilgan²⁴⁰. Bu maktab

²³⁶ Bobojanova F. *Buxoro amirligida ta‘lim tizimi (XIX asr oxiri – XX asr boshlarida)*. - Toshkent, 2011.- B. 72-73.

²³⁷ Izzayev B. *Turkiston jadidlarining Ko‘mak tashkiloti*. - Toshkent: Islom universiteti, 2016.- B. 45-46

²³⁸ Dolimov U. *Turkistonda jadid maktablari*. - Toshkent: Universitet, 2006. - B. 38-39.

²³⁹ Ҳайитов Ш., Бадридинов С. Бухоро тарихидан лавҳалар (XIX-XX асрлар). – Бухоро, 2007. – Б.13.

²⁴⁰ Dolimov U. *Turkistonda jadid maktablari*. – Toshkent, 2006. – B. 41–42.

an'anaviy usuldagi maktablardan nafaqat shart-sharoitlari, balki o'quvchilar tezda savodini chiqarishi bilan ham afzal edi. Ularga 10 oylik tahsildan so'ng ta'til berilgan, xaftha mobaynida juma va bayram kunlari dam olish kunlari hisoblangan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'rganilayotgan davrda Buxoro amirligida amal qilgan an'anaviy ta'lif muassasalari savod chiqarish o'chog'i sifatidagina emas, balki sud tizimi, masjid, madrasalar uchun kadrlar tayyorlash maskani sifatida, diniy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, jamiyatni ma'naviy qiyofasini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular asrlar davomida bu borada katta tajriba mакtabiga ega bo'lish bilan bir qatorda o'ziga yarasha muammo va kamchiliklardan ham xoli bo'lмаган. Munavvar qori Toshkentda yashagan davridayoq, tatar tarakqiy parvari Ismoil G'aspiralining jадидчиллик g'oyalari haqida bir qadar ma'lumotga ega bo'lган. Biroq, uning uzil-kesil taraqqiyparvarlar safiga kirishida, jадидлarning peshqadamiga aylanishida aynan "Islom dinining qubbasi" deb ta'riflangan Buxoroi Sharifda kechgan talabalik davrining o'ziga xos o'rni bor desak xato bo'lмайди. Avvalo, Munavvar qori Abdurashidxonov borgan yarim mustamlaka Buxoro bilan uning tasavvuridagi "Buxoroi Sharif" bir biriga umuman mos kelmasdi. Boisi, bu davrga kelib, ustozlari "Ilmning mash'ali" deb ta'riflagan Buxoro madrasalarida allaqachon ta'lif sifati pasaygan, talabalar kitob qolib, uning hoshiyasini o'qish bilan cheklanishar edi²⁴¹. Xalq esa har kuni bir bid'atga giriftor avjiga chiqar edi. Buxoroda turli sharq davlatlaridan kelgan talabalar, jahongashta sayyoxlар-u savdo ahli bilan kechgan suhbatlari davomida yosh Munavvar qori yana bir karra angladi-ki, bu zamonga kelib, butun sharq g'aflat uyqusiga ketgan, bundan foy dalangan mustamlakachilar uning mulkiga ega, erkiga hokim bo'lib olgan ekan. Munavvar qori bu shaharga kelib, o'ziga hamfikr insonlar bilan ham tanishdi. Zero, mutafakkir Ahmadi Donish, domla Ikromiddin Uroq, Sadri Ziyodek yetuk ulamolar o'z asarlarida, ma'ruzalarida o'lkada yuz berayotgan milliy tanazzulning bosh sababi aynan xalkning ilm-u ma'rifatdan uzoqlashgani va jaholat botqog'iga botganida deb ko'rsatishar edilar. Shundan so'ng Munavvar qori Abdurashidxonov faqat ma'rifat bilan millat tanazzulining oldini olish mumkin degan qat'iy xulosaga keladi. Jadid maktablari ichida Mukamiliddin Burhonov mакtabi o'zining jihozlanishi bilan ajralib turgan, unda shisha qo'yilgan (oynalik) derazalar, temir pechkalar bo'lган. Mullo Homidxo'ja Bozori Nav guzarida yana bir mакtab ochgan, unda 32 nafar o'quvchiga darslar rus tilida o'tilgan. Maktablarga asosan ularning tashkilotchilari, ayrim hollarda boy-badavlat kishilar homiylik qilgan. Bundan tashqari, ota-onalar tomonidan beriladigan o'qish puli hisobidan ham maktablar ta'minoti yo'lga qo'yilgan. Masalan, Mirzo Abdulvohid va Ayniy tashkil etgan jadid maktabida o'qish puli oyiga 3 so'mni tashkil etgan. Eski maktabda 6-10 yil o'qilsa,

²⁴¹ Бегали Қосимов, Миллий уйғониш, Жасорат, Маърифат, Фидойилик, Тошкент, "Маънавият", 2002 й. Б.234-235

yangi usul matabida 4 yil o'qitilgan. Jadidchilik harakati xalqimizning ijtimoiy manaviy uyg'onishida muhim ro'l o'ynagan²⁴². Millatni jaxolatdan marifat sari yetaklagan buyuk tarixiy xodisa bo'ldi. Maktablar xalqning savodini chiqarish, arab imlosida o'qib yozishni, arifmetik hisobni o'zlashtirishga o'rgatuvchi maskan sifatida bu davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Maktablarning o'quv dasturi boshlang'ich diniy ta'lim, islom asoslari, diniy ibodat, axloqiy tarbiyaga yo'naltirilgan, atrof-muhit, jamiyat haqida ham tushunchalar bergen. Buxoro amirligida yangi usul maktablarining tashkil etilishi o'zbek jadidchilik harakatining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu jarayon xalqning ijtimoiy-ma'naviy uyg'onishiga xizmat qilgan. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan yangi o'qitish metodlari, darsliklar, sinf-dars tizimi va ko'rgazmali qurollardan foydalanish amaldagi an'anaviy ta'lim shakllarining samaradorligiga jiddiy savol qo'ygan va xalq orasida savodxonlikni oshirishda muhim rol o'ynagan. Yangi usul maktablari Buxoro jamiyatida yangicha tafakkur, dunyoqarash va ma'rifatparvarlik g'oyalarini shakllantirgan. Shu bilan birga, bu maktablarning ochilishiga qarshiliklar, muallimlarning quvg'in qilinishi kabi to'siqlar mavjud bo'lganiga qaramay, mahalliy ziyorilar va jadidlarning qat'iyati tufayli bu harakat asta-sekin ijobiy natija bera boshlagan.

Xulosa qilib aytanda Mazkur harakat nafaqat ta'lim sohasini modernizatsiyalashga, balki Buxoroning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga ham turki bergen. Bu davrda tashkil etilgan kutubxonalar, yangi adabiyotlar va davriy matbuotlar yosh avlodni ilm va taraqqiyot sari yetaklagan. Shu jihatdan, Buxoro amirligida yangi usul maktablarining tashkil etilishi faqat ta'lim sohasidagi islohot emas, balki umumiyl milliy uyg'onish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lganini alohida ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev A. Mahmudxo'ja Bexbudiy. - T.: Yozuvchi, 1994. - 150b
2. Ирзаев Б. Туркистон Жадидларининг "Кўмак" ташкилоти. - Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2016. - 148 б.
3. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. - Тошкент: Университет, - 2006. - 129 бет.
4. Мунаввар Кори Абдурашидхонов Туркистон тараққийпарварларининг сардори. - Тошкент: Mumtoz so'z, 2018. - 158 б
5. Бобоҷонова Ф. Бухоро амирлигига таълим тизими (XIX аср охири - XX асрнинг бошларида) Диссертация. - Тошкент: 2011. - 185 б

²⁴² Izzayev B. Turkiston jadidlarining Ko'mak tashkiloti. - Toshkent, 2016. - B. 11-13.